

# **Фуқаро муҳофазаси фанидан маъруза матнлари**

Муаллиф:	М.Х.Сарикулов, Ю.У.Амонов
Яратилган:	Ангрен 2005 йил
Категория:	Педагогика 2006 йил
Булим:	Фуқаро муҳофазаси фанидан маъруза матнлари
Институт:	Тошкент вилоят Давлат педагогика институти
Факультет:	Жисмоний тарбия ва жисмоний маданият
Кафедра:	Тиббий билим асослари ва фуқаро муҳофазаси

## **ANNOTATSIYA**

Fuqaro muhofazasi fanining mohiyati va mazmuni hamda vazifalari. Fuqaro muhofazasi fani aholining barcha qatlamlarini tinchlik va urush vaqtidagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalashga oid bo'lgan savollarning yechimini o'rgatadi. Fuqaro muhofazasi fanini o'rganish davomida talabalar turli ko'rinishdagi favquloddagi vaziyatlarda nafaqat to'g'ri xatti-xarakatlarni hosil qilishlari, balki jaroxatlanganlarga birlamchi yordamni ko'rsatish, zarur bo'lgan xolatlarda kechiktirmasdan davolanish maskanlariga yetkazib borish, shaxsiy va jamoanni muhofazalash vositalridan unumli foydalana olish kabi bilim va malakalar beriladi. Bo'lajak pedagog sifatida umumta'lim maktab o'quvchilariga Fuqaro muhofazasi fanini o'qitishni uyushtirish va dars olib borish metodikalarini bilishlari zarur bo'ladi.

Ma'ruza talabalarni turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlarga duch kelganlari taqdirda nafaqat o'zlari uchun kerakli bo'lgan to'g'ri hatti - harakatlarni o'zlarida mujassamlashtirishlari, balki favqulodda vaziyatlarga to'g'ri baho berishlari hamda zarur chora - tadbirlarni amalga oshishlariga oid bo'lgan bilim va malakalar beriladi.

Ushbu ma'ruza matnlari TVDPI ning barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalar qatori O'z.R da «Fuqaro muhofazasi» fanini o'rganuchi talaba va mutahassislar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

1“Tibbiy bilim asoslari va fuqaro muhofazasi” kafedrasining katta o'qituvchisi, tibbiyot fanlari nomzodi A.T. Turdiyev.

2. Angren shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limining boshlig'i, kapitan Toshtemirov O.

Ushbu ma'ruza matnlari TVDPI ning “Tibbiy bilim asoslari va fuqaro muhofazasi” kafedrasining o'qituvchilari M.X.Sarikulov va Y.U.Amonovlar ishtirokida tayyorlangan va kafedraning 2005 - yil 26 yanvar oyidagi 7 - sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan.

## M u n d a r i j a

### **Betlar**

1-mavzu. Fuqoro muxofazasi fanining xozirgi davrdagi ahamiyati va vazifalari.	3 - 8
2 - mavzy. Tinchlik va urush davridagi favqulodda vaziyatlar	9 – 25
3- mavzu. Axolini favqulodda vaziyatlardan muxofazalash	26 –36
4-mavzu. Fuqoro muxofazasi fanini iqtishni uyushtirish	37 –40
5-mavzu. Fuqaro muxofazasining shaxsiy tarkibi va axolini ma'naviy – siyosiy va ruxiy jixatdan tayyorlash	41 - 45
6-mavzu. Umumta'lim maktab o'quchilarini fuqaro muhofazasi fanidan metodik tayyorlash va dars olib borish.	46 – 52
7. Adabiyotlar	53

### **1- ma'ruza**

Mavzu: «Fuqoro muxofazasi fanining xozirgi davrdagi ahamiyati va vazifalari».

Vaqt: 2 soat

Ma'ruzaning maqsadi: Talabalarga tinchlik va urush vaqtidagi Fuqoro muxofazasi fanining maqsadi, vazifalari va ularning echimlarini xal qilish yuzasidan o'tkaziladigan chora - tadbirlari xamda fuqaro muxofazasining xozirgi zamon sharoitidagi tutgan o'rni va axamiyati to'g'risida talabalarga bilim berishdan iborat

Ko'rgazmali qurollar: rasm, plakatlar, devoriy ko'rgazmalar, va qonunlar

### R E J A :

1. Tinchlik va urush vaqtida Fuqoro muxofazasining ahamiyati va o'rni.
2. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha tuziladigan doimiy komissiyalarning tuzilishi, maqsadi, vazifalari va ishlash tartibi.
3. Fuqoro muxofazasining tashkilotlari, tuzilmalari va jixozlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

1. Fuqaro muhofazasi va uning vazifalari.
2. MXXQM tizimi va uning vazifalari.
3. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha tuziladigan komissiyalar.
4. FVV va uning vazifalari.
5. FM ning tashkilotlardagi tuzilmalari

Fuqaro muxofazasi (FM) fanining xozirgi davrdagi axamiyati va vazifasi.

- I. Tinchlik va urush vaqtidagi FM ning ahamiyati va o'rni.

Fuqaro muxofazasi – umum davlat miqyosida olib boriladigan tadbirlardan iborat bo'lib, axoli va xududlarni urush va tinchlik davridagi FV-lardan muxofazalash, xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlash faoliyatini ta'minlash, xamda tabiiy ofat, falokat (xalokat)lar oqibatlarini bartaraf etish va kechiktirib bo'lmaydigan qidiruv – qutqaruv ishlari olib borishdan iborat.

FM-ning vazifasiga qo'yidagi masalalar kiradi:

1. Talabalarni urush va tinchlik davrlarida muxofazalanish vositalari va usullaridan unumli foydalanish, kechiktirib bo'lmaydigan qidiruv - qutqaruv ishlarini olib borishga o'rgatish va talofat qurilgan vayronagarchiliklarni bartaraf qilish ishlarida ishlash tartib qoidalari o'rgatadi.
2. Bo'lajak pedagoglarga FMsi shtabining tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish ketma - ketligi, o'quvchilarni turli FV larda o'zlarini to'g'ri tutishligi va yordam berish xamda o'zaro yordam berish usullari o'rgatiladi.
3. Talabalarga FM-ning tashkilotlarini tuzish tartibi va o'qitish usullariga oid bo'lgan savollarning echimini o'rgatishga yordam beradi.

Fuqaro muxofazasi boy an'analarga ega, chunki Fuqaro muxofazasi tashkilotining boshlanishi MPVO (mestnaya protivovozdushnaya oborona – maxaliy xavo xujumiga qarshi mudofaa - MXXKM) tuzilmasining tashkil etilishidan boshlangan. Fuqaro muxofazasining debochasi MXXKM nemis-fashizmining ustidan g'alaba qozonishda katta xissa qo'shgan. 1941 yilning oktyabrida MXXKM dastlab Buxoro, Samarqand, Farg'ona va boshqa viloyatlarda tashkil etilgan. So'ngra 1942 yilning may oyida Qoraqolpog'istonda shaxar shtablari tuzilib, maktab va to'garaklarda 4,5 mln. Fuqoro 6572 guruxlarida o'zini ximoya qilish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tkazilgan. MXXKM - ning shaxsiy tarkibi yordamida tank kolonnalari va aviaeskadril'yalarini tashkil etilishiga zarur bo'lgan mablag'lar to'plangan, bundan tashqari dushman ishgo'l qilgan xududlardan evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish va joylashtirish ishlarini amalga oshirishgan. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 900 mingdan Ko'proq bolalar, nogironlar, yaradorlar, frontdagi jangchilarning oilalari xam iliq kutib olindi.

O'zbek xalqi II – jaxon urushining g'alaba bilan yakunlanishi uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Front uchun zarur bo'lgan o'q – dori, xarbiy texnika, va boshqa anjomlar etkazib berishda tinimsiz mexnat qildi. Natijada O'zbekiston 1941 – 1945 yillardagi nemis - fashizmiga qarshi olib borilgan urush davomida frontga 2100 ta samolet, 17342 ta aviamotor, 2138 ming dona aviabomba, 17100 ta minomet, 4500 birlikdan iborat bo'lgan minalarni yuk qiluvchi qurollar yetkazib berilgan. Bundan tashqari front uchun 60 mingga yaqin xarbiy – kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, dala radiostantsiyalari uchun 3 mln. dona radiolampalar, qariyb 300 mingga parashyut, 5 ta bronepoezd, 18 ta xarbiy – sanitariya va xammom – kir yuvish poezdi, 2200 ta ko'chma oshxona va boshqa ko'p miqdorda xarbiy anjomlarni etkazib berdi.

Prezidentimiz I.Karimov 1999 yil 2 martda e'lon qilgan Farmoyishiga ko'ra, 9 May - Xotira va Kadrlash kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bu kunda fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga xissa qo'shgan xamda Vatanimiz mustaqilligi uchun xayotini tikkan xar bir inson umumxalq tomonidan yodga olinadi. Xozirgi kunda safimizda bo'lgan nuroniy otaxonu – onalarimiz esa doimo e'zozlanib qadrlanadi.

Aholini ximoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan muxim ishlardan biri - bu 1961 yil iyul' oyida MPVO ni Mudofaa vazirligi qoshida Fuqoro mudofaasi tashkilotiga aylantirilganligi xisoblanadi. Buning ob'ektiv sabablari - tabiiy ofatlarning ko'payishi, ishlab chiqarilishlardagi falokatlar, respublika xududidagi tinchlik davrida sodir bo'layotgan xalokatlar, qurollanish poygasi, sovuq urush va 2 - jaxon urushi xavfining yuzaga kelganligi.

1996 4 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan «Favqulodda vaziyatlar vazirligi» ning tashkil topilishi munosabati bilan «Fuqoro mudofaasi» Fuqoro muxofazasi (FM) deb yuritiladigan bo'ldi. Xozirgi kunda FM sining axamiyati kundan – kunga ortib bormoqda. Shu vaqtgacha axolini ommaviy kirgin qurollaridan ximoyalash vazifalari asosiy deb qaralgan bo'lsa, endi nafaqat ommaviy kirgin qurollaridan muxofazalash ishlarini, balki axoli va xududlarni tabiiy ofatlar va texnogen xususiyatli xalokatlardan muxofazalash zarurligi katta axamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan axoli va xududlarni turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlardan muxofazalashga qaratilgan qkator qonunlar chiqarilgan. Bularga quyidagi qonunlarni kiritish mumkin:

1. O'z.R.ning qonuni: «Axoli va xududlarni tabiiy ofatlar va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofazalash» (20 avgust 1998 yil.)
2. O'z.R.ning konuni: «Fuqaro muxofazasi to'g'risida» (26 may 2000 yil).
3. O'z.R.ning konuni: «Mudofaa to'g'risida» (yangi taxriri, 11 may 2000 yil).
4. O'z.R.ning konuni: «Gidrotexnik inshootlarning xavfsizligi to'g'risida» (30 avgust 1999 yil) va boshqa qonunlar.

II. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha tuziladigan doimiy komissiyalarning tuzilishi, maqsadi, vazifasi va ishlash tartibi.

Tinchlik davrida yuzaga keladigan tabiiy ofatlar, falokat (xalokat) lar, ularning oqibatlarini bartaraf qilish va shu jarayonni amalga oshirish uchun boshqaruv ketma-ketligini doimiyligini ta'minlash, xamda FV larni oldini olish bo'yicha ogoxlantirish va nazorat ishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida O'z. Rning Vazirlar Maxkamasi qoshida FV lar bo'yicha Davlat komissiyasi (FVK), xuddi

shuningdek joylarda viloyat, shaxar va tuman xokimliklari qoshida FVK lar tashkil etiladi.

FVK lari yuqori tashkilotlar raxbarligida ish olib borishadi va FV lar biyicha tuziladigan Davlat komissiyasi ita xavfli falokat (xalokat) larning sabablarini aniqlash va oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha, shuningdek yirik masshtabdagi tabiiy ofatlar biyicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda faol qatnashadi.

Barcha tuziladigan FVKlarning tuzilish tartibi quyidagi tamoyillarga asosan amalga oshiriladi:

1. Xududiy asosda.
2. Ishlab chiqarish tamoyiliga binoan.

Xududiy FVK lar O'z.R VM ning qaroriga binoan u yoki bu mintaqada sodir etilgan FV lar tufayli tuziladi.

FVK iz faoliyatini FVV, IIV, MXX, maxalliy tibbiyot markazlari, o't o'chirish muassasi, xarbiy qo'mondonlik raxbariyati va Davlat nazorati tashkilotlari bilan xamkorlikda ish yuritadi. Xududiy tamoyil asosida tuzilgan FVKsi tomonidan chiqarilgan barcha farmoyish va buyruqlar xamma uchun majburiy xisoblanadi. Masalan, komendant soati va boshqa farmoyishlarga xamma bo'ysunishi shart. FVlarning sabablari aniqlanib, qurilgan talofat va zararlar miqdori o'rganilgandan so'ng, FVlar oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan zarur chora – tadbirlar ishlab chiqiladi. FVK tomonidan FV oqibatlari to'liq bartaraf etilmaguncha barcha tiklash ishlari olib boriladi.

Ishlab chiqarish tamoyiliga binoan tuzilgan FVK tomonidan joriy qilingan farmoyish va buyruqlar faqat o'sha ishlab chiqarish xududi uchun ta'luqli bo'ladi. FVK tomonidan FVlarning sabablari aniqlanib, FVlarning oqibatlari bartaraf qilingandan so'ng barcha joriy qilingan farmoyish va buyruqlar bekor qilinadi.

### III. FM ning tashkilotlari, tuzilmalari va jixozlari.

FM-si xalq xijaligining xamma ob'ektlarida tashkil etiladi: sanoat, qishloq xijaligi, o'quv yurtlari, tashkilotlar va turli bilinmalar qoshida.

FM-sining raisi vazifasini tashkilotning raxbari bajaradi. Raxbar FM-sining tashkil etilishiga, ta'minoti va tayyorgarligiga va qidiruv - qutqaruv ishlarini olib borish ishlariga javobgar shaxs xisoblanadi.

FM-sining raisi tarmoq yo'nalishidagi raxbarga va sa'yi xarakat bo'yicha FVV ning maxalliy bo'limining raisiga bo'ysinadi.

Yirik korxonalarda FM sining raisi uchun aloxida o'rindoshli lavozimi ko'zda tutilgan bo'ladi. FM sining raisi tinchlik davridagi barcha tashkiliy va tayyorgarlik tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ma'sul hisoblanadi.

Barcha tashkilotlar qoshida FM sining faoliyatini amalga oshirish maqsadida FM ning shtabi tashkil etiladi. O'rindoshlikdagi muovindan tashqari FM-si raisining buyrug'iga binoan tashkilot qoshida FM shtabining qo'yidagi muovinlari tayinlanadi:

1. Ishchi xodimlarini xavfsiz joylarga ko'chirish, joylashtirish va ish bilan ta'minlash bo'yicha;
2. Moddiy - texnik ta'minot (MTT) bo'yicha muovini;
3. Shtab boshligining umumiy masalalar bo'yicha muovini

FM-si shtabining axolini ko'chirish va joylashtirish bo'yicha muovining vazifasiga ishchi - xodimlar va ularning oilalarini xavfsiz joylarga ko'chirish, ish bilan ta'minlash bo'yicha reja tuzadi. Shu maksadda shaxardan tashqarida joy tayyorlaydi, ishchi-xodimlarning ishga kelishi va qaytishni xamda jamoat tartibini qo'riqlash xizmatini boshqaradi.

FM-si shtabining MTT bo'yicha muovini etib korxon bosh muxandisi tayinlanadi. Uning raxbarligida qo'yidagi tashkiliy ishlarni amalga oshiradi: tibbiy xizmat, texnik-falokat, yong'inga qarshi burchak, erto'la va saqlagichlar va boshqa xizmatlarni tashkil etadi. Bundan tashqari MTT bo'yicha muovin tomonidan avariya sodir etilgan xududlarda qidiruv - qutqaruv ishlarini olib borish uchun zarur texnik xizmatiga raxbarlik qiladi.

FM-si shtabining umumiy masalalar bo'yicha muovini tomonidan qo'yidagi ishlar xajmi amalga oshirilishi ko'zda tutiladi: barcha bo'limlar tarkibidagi shaxsiy tarkibning ishga layoqatli bo'lgan qismini aniqlaydi va ish rejasi ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda shaxsiy tarkibning qanchasi qay darajada davolanishga muxtojligi, ular uchun zarur bo'lgan suv va oziq - ovqat maxsulotlariga bo'lgan extiyoj xamda ularni ta'minlashga oid ishlar xajmini amalga oshirish va nazorat qilish ishlari yuklatiladi.

Yirik korxonlardagi FM shtabining tarkibiga: shtab boshlig'i va uning muovinlari faoliyat yuritishadi. FM shtab boshlig'iining birinchi muovini buyruq va farmoyishlar (rais nomidan) chiqarish xuquqiga ega.

FM siga yuklatiladigan vazifalarni ijro etish uchun quyidagi xizmatlar tashkil etiladi: radioaktiv va ximiyaviy nazorat posti (RXNP), aloqa va ogoxlantirish, jamoat tartibini qo'riqlash, yong'inga qarshi, meditsina, texnik-falokat, erto'la va saqlagichlar, energetika va yorug'likdan yashirish, radiatsiya va ximiyaga qarshi ximoyalani, MTT, transport suv va oziq - ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash va boshqalar.

Ogoxlantirish va aloqa xizmati, aloqa uzeli (bilimi) va uning boshlig'i asosida tashkil etiladi. Uning vazifasiga: FVning yuzaga kelishi to'g'risida ma'lumotni o'z vaqtida FVVning maxalliy bo'limlariga, FMning shaxsiy tarkibiga etkazish va zrrur ogoxlantirish ishlarini olib borish ishlari yuklatiladi. FM ning signal va ma'lumotlarini etkazish, aloqaning doimo tayyorgarlik xolatiga javob berish, aloqa qurilmalaridagi nosozliklarni bartaraf qilish va boshqa vazifalar yuklatiladi.

Jamoat tartibini saqlash xizmatiga-IIb xodimlari bilan birgalikda shaxsiy va jamoa mulkining talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik, barcha Fuqarolar tomonidan belgilangan tartib - qoidalarga to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish vazifalari yuklatiladi. Shu bilan birgalikda ro'yxatga olingan ob'ektlarning qo'riqlanishiga javob berishadi.

Radioaktiv va ximiyaviy zaxarlanish posti (RXNP) xizmati ximiya laboratoriyalari qoshida tashkil qilinadi. Vazifasi: Ishchi-xizmatchilar va FMning shaxsiy tarkibini, suv bilan ta'minlash manbalari, oziq-ovqat omborlari va boshqa ob'ektlarning radioaktiv va zaxarlovchi moddalar bilan zararlanganlik darajasini aniqlaydi va muxofazalash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi. Shaxsiy va jamoani muxofazalash xamda joylardagi maxsus texnikaning xolatini nazorat qiladi. RXNP FMning shaxsiy tarkibini dozimetro'k asboblarda yordamida radioaktiv va ximiyaviy zararlanish darajalarini aniqlashdan tashqari axoli va FMning shaxsiy tarkibini sanitar ko'rikdan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi.

Yong'inga qarshi xizmat-yong'inga qarshi tadbirlar ishlab chiqadi va nazorat qiladi, yong'inlarni o'chirish va RXNP xizmatiga yordam beradi.

Texnik-falokat xizmati. Vazifasi: asosiy inshootlarning barqaror ishlash faoliyatini ta'minlash, muxandislik qurilmalarining uzluksiz ishlashini, falokat oqibatlarini bartaraf qilish, vayronalardan tozalash va odamlarni qutqarish jarayonida qatnashadi.

Meditsina xizmati-poliklinika, medpunktlar bazalarida tashkil etiladi. Vazifasi: tibbiyot bo'linmalarining doimo tayyorligini ta'minlaydi, sangigienik va profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish, jaroxatlanganlarga 1-chi tibbiy yordam ko'rsatish, davolash maskanlariga jo'natish, joylashtirish va boshqa xizmatlarni bajaradi.

Transport xizmati-korxonalaridagi transport bo'linmalari va garajlar bazasida tashkil etiladi. Axolini ko'chirish, ish joyiga etkazish, xalokat sodir etilgan joylarga texnikani etkazish, talofat ko'rganlarni olib chiqish va boshqa ishlarga jalb qilinadi.

MTT xizmati korxonalarining MTT bilimlari bazasida tashkil etiladi. Vazifasi: MTT ning rejasini tuzadi, o'z vaqtida kerakli jixozlar bilan ta'minlash, texnikani ta'mirlash, kerakli erga etkazib berish, saqlash va xisobot berib borish, axoliga oziq-ovqat va zarur jixozlar bilan ta'minlash masalalarini xal etadi.

Energota'minoti va yorug'likdan yashirish xizmati bosh-energetik qoshida tashkil etiladi. Vazifasi: uzluksiz ravishda gaz, yonilg'i, elektroenergiya bilan ta'minlash, yorug'likdan yashirish va qutqaruv ishlarida ishtirok etadi.

#### Ma'ruza bo'yicha nazorat savollari

1. Fuqaro muhofazasi nimalarni o'rgatadi va uning vazifalari nimalardan iborat
2. MXXQM tizimi qachon tashkil etilgan va uning vazifalari.
3. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha tuziladigan komissiyalarning tuzilishi va ishlash tartibi
4. Oz.R. da FVVligi qachon tashkil etilgan va uning vazifalari.
5. O'quv yurtlaidagi FM ning tashkilotlardagi tuzilmalari



## 2 - va 3 - ma'ruzalar

Mavzu: «Tinchlik va urush davridagi favqulodda vaziyatlar»

**Vaqt: 4 soat**

Ma'ruza maqsadi: Talabalarga tinchlik va urush vaqtida turli xil favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablar va ularning tavsifnomasi xaqida bilim va tushunchalarni berish.

Ko'rgazmali qurollar: Rasmlar, plakatlar, devoriy ko'rgazmalar, diafil'm va jurnallar.

REJA:

1. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari.
2. Xalq xo'jaligida sodir etiladigan falokatlar, xalokatlar, tabiiy ofatlar va ularning tavsifnomasi.
3. Fuqoro muxofazasining axolini o'gohlantirish bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan chora - tadbirlari.
4. Chernobil AESidagi halokat va uning tafsifnomasi.
5. Kucli ta'sir etuvchi zaxarli moddalar (KZM) ning tafsifnomasi

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

1. FVlarning turlari va kelib chiqish sabablari

2. Tabiiy ofatlarning turlari va tafsifnomasi
3. AESlardagi xalokatlar va ularning atrof muxitni zaralantirish oqibatlarini
4. FM ning axolini FV larrdan ogoxlantirish usullari
5. KTZM larning tafsifnomasi.

#### I. FV larning turlari va kelib chiqish sabablari.

Sir emas, dunyo miqyosidagi favqulodda vaziyat (FV) lar ko'lamini yildan – yilga ortib bormoqda. Bularga Chernobil' AES-sidagi xalokat, temir yo'l transportidagi sodir etilayotgan falokatlar, ayniqsa, kuchli zaxarlovchi modda (KZM) larni tashish mobaynidagi falokatlar, turli tabiiy ofatlar xamda texnogen xususiyatli xalokatlarning ko'lamini ortib bormoqda. Masalan, Ashxobod (1948) va Armanistondagi (1998y) er silkinishlar, xatto tinchlik vaqtida xam ommaviy kirgan qurollarining ishlatilish xavfi saqlanib qolayotganligi urush va tinchlik davrlaridagi FV larni o'rganish zarurligini taqozo etadi. Shuning uchun xam Fuqoro muxofazasining tinchlik va urush vaqtidagi o'rni va FV larning oqibatlarini bartaraf qilishdagi vazifalari va ahamiyati dolzarbligicha qolmoqda.

Dunyo miqyosida sodir etilayotgan barcha FV larni quyidagi turlarga bo'lib o'rganish qabul qilingan:

1. Tabiiy ofatlar tufayli yuzaga keladigan FV lar (er qimirlash, xalokatli suv toshqinlar, bo'ronlar, qor bo'ronlari, ko'chkilar, sel kelishi, o'rmon va torf yong'inlari, epidemiyalar va boshqalar.)
2. Atrof muxitga radioaktiv va zaxarli moddalarning chiqarib yuborilishi bilan bog'liq bo'lgan FV lar (AESlaridagi falokatlar, yadro energetikasiga ta'aluqli bo'lgan korxonalaridagi radioaktiv moddalar)ning atmosferaga chiqib ketishi. KZM ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi falokatlar, bakteriologik moddalarni va pestitsidlar ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi nosozlik va falokatlar tufayli atmosferaning zaxarlanishlari).
3. Yong'inlar, portlashlar tufayli yuzaga keladigan FVlar va ularning oqibatlarini (imorat, inshoot, texnologik qurilmalar, xar xil xajmlar, portlash va yong'in xavfi bor bilgan quvurlar, axoli punktlaridagi yong'in va portlashlar, shuningdek transport quvurlaridagi xalokatlar va boshqalar)
4. Turli mojarolar tufayli yuzaga keladigan FV lar (shtab, omborxonalar, xarbiy garnizonlarga uyushtiriladigan qurolli xujumlar, diniy-estremistik guruxlarning tashabusi tufayli tashkil etiladigan namoyishlar va tartibsizliklar, milliy adovatlar tufayli yuzaga keladigan to'qnashuvlar va x.k.).

FV larning turlaridan eng daxshatlisi er silkinishi bo'lishiga qaramasdan insonlar orasidagi bo'layotgan qurbonlar xisobiga binoan bo'ronlar birinchi o'rinda turar ekan.

Barcha FV larni kelib chiqishi sabablariga ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ro'para qilish mumkin. Ob'ektiv omillar sifatida xalq xo'jaligining rivojlantirilishi uchun zarur bo'lgan barcha texnologik jarayonlarni takomillashtirish va yangilarini joriy etishni taqozo etadi. Bu jarayonni ro'yobga chiqarishda inson omili katta ahamiyat kasb etadi, lekin buning zaminidagi muammolarning echimini xal qilishda oqilona yondashuv o'ta muxim ahamiyatga ega, chunki dastlabki loyixalash, sinovdan o'tkazish va joriy qilingan taqdirda xam zamon talabiga javob beradigan texnologyalarni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish zarur, shundagina turli xil ko'rinishdagi falokat va xalokatlarning oldi olingan bo'ladi.

Sub'ektiv omillarga: ishchi xizmatchilarning va mutasadi xodimlarning o'z xizmat vazifalariga e'tiborsizlik xamda ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bilishligi - oqibat natijada turli baxtsizliklar, kelishmovchiliklar, falokat va boshqa ko'rinishdagi FV larning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari xodimlar malakasining pastligi, loqaydsizligi, xizmat vazifalarini suiste'mol qilishligi, texnologik jarayonlarni qo'pol ravishda buzish xolatlari, ish o'rinlarini tashlab ketish xollari va x.k. Ayniqsa, insoniyat tomonidan tabiiy boyliklardan ayovsiz foydalanish xolatlari, tabiatga nisbatan befarq munosabatda bo'lish, eng achinarlisi yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik va qo'pol ravishda buzish xisobiga ko'p miqdordagi yong'inlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

## **II. Xalq xo'jaligida sodir etiladigan falokatlar, tabiiy ofatlar va ularning tavsifnomasi.**

Tabiiy ofatlar deganda tabiatda sodir etiladigan er qimirlashi, suv toshqini, ko'chkilar, qor ko'chishi, sel kelishi, bo'ronlar, tufonlar, yong'inlar, vulqonlarning otilishi va boshqalarni kiritish mumkin. Bunday favqulodda vaziyat kurinishida sodir etiladigan tabiiy ofatlar axolining normal faoliyatini izdan chiqaruvchi, insonlarning qurbon bo'lishiga, katta miqdordagi moddiy boyliklarning yakson bo'lishiga olib keladi.

Tabiiy ofatlar aloxida yoki bir-biriga bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin. Ba'zilar insoniyat faoliyatidagi aqlsizlik bilan ish yuritish tufayli sodir etiladi (irmon yong'inlari, ishlab chiqarishdagi portlashlar, foydali qazilmalarni olishda, tog' kon ishlarini olib borish va kar'ernlardagi portlatish ishlarini olib borish jarayonidagi sabablar xisobiga ko'chki xodisalarining sodir etilishiga turki bo'ladi). Dunyo miqesida sodir etilaetgan tabiiy ofatlarning 9/10 qismi quyidagi 4 ta turlariga to'g'ri kelishi aniqlangan: suv toshqinlari (40%), tropik tufonlar (20%), er silkinishlari (15%), va qurg'okchilik (15%) ni tashkil etarkan. Olib borilgan tadqiqot natijalariga binoan tropik tufonlar tufayli axoli orasida nobud bo'lishi

bo'yicha birinchi o'rinni egallarkan, suv toshqinlari esa ko'p kuzatilishi va katta miqdordagi talafotlar bilan namoyon bo'larkan.

Er silkinishi deganda er qobig'ining kuchli tebranishi o'rganilib, vulqon yoki tektonik sabablar tufayli yuzaga keladi va imoratlarning vayron bo'lishi, yong'inlar chiqishi va insonlarning xalok bo'lishiga olib keladi. Erning silkinishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: er yuzidagi tebranishning jadalashish jarayoni, magnitudasi va silkinish o'chog'ining chuqurligi bilan.

Erning silkinishdagi umumiy energiyasi magnituda bilan tavsiflanadi va u mikronlarda o'lchanadigan tuproq siljishidagi maksimal amplituda lagorifmi bilan ifodalanadi:  $M_{qlg} \lambda_{max}$ . Bu qursatkich seismograf asboblari yordamida silkinish markazidan 100 km masofadagi uzoqlikda ilchanadi. Rixter shkalasiga binoan magnituda (M) 0 dan 9 gacha o'zgaradi (9 eng kuchli silkinish). M ning bir birlikka ortishi tebranish amplitudasining 10 barobarga ortishini bildiradi va er silkinishdagi energiyaning 30 barobarga ortadi. Masalan  $M_{q7}$  bilganda, tuproq silkinishdagi maksimal amplituda  $M_{q5}$  bilgandagi qiymatga nisbatan 100 barobar ko'p, shu bilan birgalikda er silkinishdagi umumiy energiya miqdori 900 marotaba ortadi.

Er yuzasidagi energiya intensivligi ballarda o'lchanadi, u esa silkinish o'chog'i, magnituda, silkinish markazigacha bo'lgan masofa, erning geologik tuzilishi va boshqa ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi.

Er silkinishi tufayli xalq xijaligiga katta miqdorda moddiy zarar etkazilishidan tashqari axoli orasida insonlarning xalok bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan 1990yil 21 iyundagi Eronning shimoliy qismi (Gilyan viloyati)da yuzaga kelgan er silkinishi tufayli 50 mingdan ko'proq axoli xalok bo'lgan, 1 mln kishi yarador va boshpanasiz qolgan.

7 dekabr' 1988 yil Armonistondagi er silkinishi tufayli 25 ming Fuqoro xalok bo'lgan. 1,5 mingta qishloq va 12 ta shaxar katta zarar ko'rgan, shu jumladan 3 ta shaxar tilik vayronaga aylangan.

Er silkinishi boshqa turdagi tabiiy ofatlarni yuzaga keltiradi: ko'chkilar, sel kelishi, suv toshqini (tig'onlarning yorilish) xisobiga yong'inlar (neft saqlagichlardagi shikastlanishlar va gaz quvurlaridagi uzilishlar - yorilishlar), kommunikatsiyalar, elektr ta'minoti, suv ta'minoti va kanalizatsiyalardagi falokatlar, ximiyaviy korxonalaridagi falokatlar tufayli KZM larning chiqarib (oqib ketishi) yuborilishi xamda AES lardan RM larning atrof-muxitga tarqalishi tufayli salbiy oqibatlar yuzaga keladi.

*Suv toshqini deganda daryo, ko', suv omborlaridagi suv satxining tezkorlik ko'tarilishi tufayli katta maydonlarni suv bilan qoplanishiga aytiladi va u quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi: baxorgi paytlardagi qorlarning erishi, ko'p miqdordagi yog'ingarchilik va jala kelishi, daryolardagi muzliklarning yig'ilib qolishi, tig'onlarning buzilishi, ko'chkilar tufayli ko'llarning paydo bo'lishiga va xakozalar. Suv toshqini tufayli korxonalar, imoratlar vayronaga*

*aylanishi, avtomobil va temir yollarning buzilishi, aloqa va elektr tarmoqlarida, sug'orish tizimiga, qishloq xo'jalik ekinlariga, xom ashyo va boshqa turdagi moddiy boyliklarga katta ziyon etkaziladi.*

Suv toshqini tufayli elektr tarmoqlaridagi qisqa tutashuv zaryadlar xisobiga yong'inlar chiqishi, suv va kanalizatsiya quvurlarida uzilishlar, televizion va telegraf kabellaridagi aloqalarning yo'qolishi, ba'zi maydonlardagi er satxining chiqishi xisobiga uzilishlar paydo bo'ladi. Suv toshqinlarining oldini olishda suvning taqsimot sarflanishini doimiy nazorat qilib borish, daraxtlar ekish va suv toshqini bo'ladigan xududlarda ko'ndalangiga ishlov berish kabi ishlarni bajarish zarur. Katta daryolar uchun suv omborlarini qurish va sarflanishi nazorat qilish xisobiga ularning satxi rostlanadi, suv izanini chuqurroq olish, suv oqimining yonalishini tog'rilash, muzlarni yorish, ayniqsa, muz qalinligiga nisbatan 2,5 barobar chuqurlikda portlatishlar - ko'proq foyda beradi(tuz yoki maydalangan shlak sepush maqsadga muvofiq xisoblanadi).

Ko'chkilar – tog' jinsli, tuproq va qor massalarning qiyalik bo'ylab sirpanib siljishiga aytiladi, sababi muvozanat xolatining yo'qolishi tufayli yuzaga keladi, bu esa turli sabablarga ko'ra sodir etiladi (jinslarning suv bilan yuvilishi, shamol va yog'ingarchilik ta'sirida namlanishi, erdagi silkinishlar va boshqa omillar natijasida mustaxkamligining kamayishiga olib keladi).

Ko'chkilar burchak qiyaligi  $20^{\circ}$  va undan yuqori bo'lgan barcha qiyaliklarda uchrashi mumkin va xamda turlicha tezlikda xarakatlanadi. Kam tezlikdakisida jinslarning tezligi yiliga bir necha un sanimetrni tashkil etsa, o'rtachasida-soatiga yoki sutkada bir necha metrga, katta tezlikdagilari esa soatiga bir necha o'n km masofolarga siljiydi. Katta tezlikda xarakatlanuvchi ko'chkilar tufayli xalq xo'jaligiga ko'p miqdordagi moddiy zararlardan tashqari insonlarning xalok bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ko'chki xodisalari tufayli bir necha yuz va mlrd  $m^3$  xajmdagi jinslarning ma'lum kiyaliklar bo'ylab siljishiga sabab bo'ladi. Ko'chkilar xalq xo'jaligining barcha soxalariga katta talofat keltiradi, qishloq xo'jalik maydonlarining yaroqsiz xolga kelishi, foydali qazilmalar ishlab chiqarishda xavfli xolatni yuzaga keltiradi, tunellar, quvurlar, telefon va elektr simlarini, yillarni yaroqsiz xolga keltiradi.

Masalan: 1911 yili Pamirdagi er silkinish tufayli (Mq7,4 ball)  $2,5$  mlrd  $m^3$  xajmdagi tuproq massasining surilishiga va 200 kishidan iborat bo'lgan Osoy qishlog'idagi axolining ko'chki tagida qolishiga, so'ng Murgab daryosining tuzilishiga xamda 300 m balandlikdagi tabiiy tig'onning xosil qilinishiga sabab bo'lgan. Bir yildan so'ng 300 xonadan istiqomat qiluvchi Sarez qishlogining axolisi boshqa joyga ko'chirilgan. Xozirgi kunda xosil qilingan tabiiy ko'l –Sarez suv omboridagi suv satxining balandligi 284 km, uzunligi 53 km ni tashkil etadi. BMT ning maxsus qaroriga binoan xozirgi kunda Sarez ko'li ekologik xalokat sifatida ro'yxatga olingan.

For ko'chkilari - qor kristallari va xavo aralashmasidan iborat bo'lgan massalarning, qiyaligi  $25^{\circ}$  -  $60^{\circ}$  bo'lgan qiyaliklarda siljish jaraeniga aytiladi. Katta

toshlar va mayda daraxtlar qor ko'chkilariga tisir qila oladi. 1990y Pamir tog'idagi er silkinish va qor ko'chishi natijasida, dengiz satxidan 5300 m balandlikda 40 kishidan iborat bo'lgan alpinistlarning xalok bo'lishiga olib kelgan.

Ximoyalanish: faol va passiv ravishda amalga oshirish usullarini qo'llash mumkin. Passiv usuliga binoan ko'chki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyaliklarni chetlab o'tiladi va turli to'siqlar bilan bekitiladi. Faol usulga binoan ko'chki xavfi bor qiyaliklar portlatilib, majburiy ravishda qor va tuproq massalarining ko'chishiga, ya'ni tabiiy ko'chkilarning yuzaga kelmasligi ta'minlanadi.

Sel kelishida - asosan tog'lardagi daryolarda katta tezlik bilan xarakatlanuvchi yomg'ir suvlarining mineral zarrachalar, toshlar va tog' jinslarining parchalari (10-70% ni tashkil etadi) bilan birgalikdagi xarakatlanish jarayoniga aytiladi. Orta Osiyo sharoitida ko'proq loyqalangan sel oqimi uchraydi. Sel oqimining tezligi 2,5-4 m/s, to'siqlarni yorib o'tish jarayonida 8-10 m/s va undan kattaroq tezlik bilan xarakatlanadi. Masalan, 1921 yilning 8 iyuniga o'tar kechasi Olma-ota shaxriga tog' tomonidan kelgan sel (21<sup>00</sup>da) tuproq, loy, tosh, qor, qumlarni suv oqimi bilan olib kelishi natijasida, dala xovlilar odamlari bilan, xayvonlar, daraxtlar va turli jismlar shaxarga oqizib kelingan va uylar fundamenti bilan ko'chirib yuborilgan. Sel oqimi ertalabga yaqin to'xtagan va shaxar xududida 200 m kenglikdagi, ya'ni 2 mln m<sup>3</sup> li tosh-loyqa aralashmasi bilan to'ldirib tashlangan.

Ximoyalanish- tog' konlar qurish xisobiga suvning katta bosimli oqimini to'xtatish, suyuqlik oqimini o'tkazib yuborish, ariq va zavurlarni qazish kabi ishlarni olib borish zarur bo'ladi.

Bo'ronlar deganda Boffort shkalasiga binoan 12 balli tizimda o'lchanadigan kuchli shamollarga aytiladi. Tropik tsiklonlar xam bo'ronlar turiga kiradi (Tinch okeani, Markaziy Amerika qirg'oqlarida, Uzoq Sharq, Xind okeanlaridagi buronlar tufonlar deyiladi) bu bo'ronlarda shamol tezligi 50 m/s ortiq bo'ladi. Bo'ronlar va shtormli shamollar deganda shamol tezligining miqdori Boffort shkalasiga binoan xarakatlanish tezliklari 20,8-32,6 m/s bo'lgan kuchli shamollarga aytiladi. Bo'ronlar tufayli qishda qor massalari osmonga uchirib yuboriladi, buning natijasida yo'llarning to'silishiga, transport vositalarining to'xtashiga, suv, gaz, elektr va aloqa tarmoqlaridagi uzilishlarini yuzaga keltiradi. Masalan: 1970 yilning 13 noyabrida Pokistonning markaziy qismiga (qirg'oq qismi) kelgan biron tufayli va sel kelishi oqibatida suv satxining birdaniga qutarilishi va dengiz to'lqinining ta'sir etishi tufayli 10 mln. axoli katta miqdorda talafot ko'rgan, shu jumladan 0,5 mln. kishi nobud bo'lgan va bedarak yoqolgan.

1944 y (dekabr) Luyun orolidan (Filippin) 300 mill uzoqlikda joylashgan A£Sh ning 3-floti tayfun (tufon) markaziga yaqin joyga borib qolganligi tufayli 3 ta esminets chikkan, 28 ta tema shikastlangan, 150 dan ortiq samolyotlar kemalardan tushirib yuborilgan, 800 dan ortiq odam xalok bo'lgan.

Ximoya sifatida metro saqlagichlar, er osti yo'llari, imoratlarning erto'lalari (faqat suv bosish extimoli xisobiga ximoyalanish uchastkalari tepalik joylarda bo'lgani ma'qul).

Yong'inlar deganda nazorat qilib bo'lmaydigan yonish jarayoni o'rganilib, moddiy boylikning yo'qolishiga va odamlar xalok bo'lishiga sabab bo'ladi. Enginlarning kelib chiqishiga asosiy sabab olov bilan extiyotkor bo'lmaslik, yong'in-xavsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, bundan tashqari tabiatdagi chaqmoq-uchqun xodisalarining sodir etilishi, torf-isimliklarning o'z-o'zidan olovlanishi (90 foiz yong'inlar insonlarning xatosi va 10 foizga yaqini uchqun chiqishi tufayli sodir etilishi aniqlangan).

Tabiiy ofatlar tufayli sodir etiladigan yong'inlar keng maydonlarni qamrab olish xususiyatiga ega, ayniqsa bu xolat o'rmonlar va dashtlar (dalalar)da uchraydi. Irmon yong'inlari yonish jadalligi bo'yicha kuchsiz, o'rta va kuchli turlarga bo'linadi, xamda yonish usuliga ko'ra –pastda va tepa qismida yonishi bilan ajraladi

Irmon pastki qismi yonganda, barcha o't-o'lanlar yonadi, daraxt tepasiga olov o'tmagan bo'ladi, Yong'inning tarqalish tezligi 0,3-1 m/min., kuchsizida esa 16 m/min. (1 km/soat), kuchli yong'inda olov balandligi 1-2 metr balanliklarda alanqalanadi, maksimal xarorat miqdori 900<sup>0</sup> S gacha etadi. Ormon tepa qismi yonganda, dastlab pastki yong'inning davomi sifatida yuzaga keladi va daraxtlarning tepalari yonadi, olovning tarqalish tezligi 5-8 dan 8-25 km/soat gacha etadi.

Er osti yong'inlari ko'p xollarda o'rmon yong'inlarning davomi sifatida yuzaga keladi va er osti joylashgan 50 sm chuqurliklarda va undan chuqurroq bo'lgan torf qatlamlarining yonishi kuzatiladi (ba'zan ko'proq chuqurlikda) va yonish tezligi 0,1-0,5 m/min.tezlikda tarqaladi va ko'p miqdorda tutun xamda bo'shliqlar xosil qiladi. Shuning uchun xam er osti yong'inning o'chog'iga extiyotkorlik bilan yaqinlashish zarur, Yonish jarayoni qishda qor tagida xam davom etishi mumkin.

Dasht (dala) yong'inlari ochiq maydonlardagi qurigan o'tlarning yoki etilgan bug'doylarning yonishi tufayli yuzaga keladi. Asosan yoz davriga to'g'ri keladi vaularning tarqalish tezligi 20-30 km/soatni tashkil etadi.

Irmon yong'inlariga qarshi kurashda pastki qismini o'chirish yoki tuproq sepish, suv sepish va boshqa usullar ishlatiladi. Ormonning tepa qismi yonganda suvli yoki ochjig usulidagi yo'lakchalar xosil qilinadi. Ochig usuliga ko'ra 10-20 m kenglikdagi yo'lakcha yoqib yuboriladi, uning uzunligi 150-200 m.dan kam bo'lmasligi kerak. Dashtdagi yong'inlar sham xud shu usulda o'chiriladi.

Er osti yong'inlarini uchirish jarayoni quyidagi 2 usulda amalga oshiriladi:

1. Torf yong'inning atrofida 8-10 m masofada ariqcha kavlanadi, sungra Erning mineral qatlamigacha bo'lgan maydonlar suv bilan to'ldiriladi.
2. Yong'in atrofida ximiyaviy moddalar bilan boyitilgan yo'lakcha xosil qilinadi (sul'famol', yuvish poroshogi va xakozalar).

Falokat – bu mexanizm, mashina, uskuna va inshootning ishga yaroqsiz xolatga kelishidir. Asosiy sababiga-texnologik jarayonga rioya qilmaslik, xavfsizlik choralarining qurilmaganligi, loyixalashda yo'l qo'yilgan xatolar, tayyorlash jarayonidagi xatolar, mexnat intizomining past darajadaliigi va tabiiy ofatlarning oqibatlari tufayli sodir etiladi. Ishlab chiqarishdagi falokatlar, ayniqsa kimeviy korxonalaridagi portlashlar xisobiga juda katta miqdordagi talafotlar va qurbonlar sodir etiladi.

### **Katta talofatlar asosan portlashlar, yong'inlar, atrof-muxitning KZM va RM lar bilan zararlanishi tufayli yuzaga keladi.**

Portlashlar va uning natijasida sodir etiladigan yong'inlar tufayli portlash moddalarining zaxarli moddalar sifatida atrof – muxitga tarqalishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ko'pincha uglevodorodli maxsulotlarning xavo qopqoqlariga yigilib qolishi, ulardagi mavjud nosozliklar xisobiga tashqariga chiqib ketishi va issiq manbalariga kelib tegishi natijasida portlashlar sodir etiladi. Yong'inlar elektr tarmoqlaridagi nosozliklari xisobiga xam yuzaga keladi, ayniqsa, xajmlardagi va boshqa turdagi idishlardagi kamchiliklar sabablariga ko'ra sodir etiladi.

### **III. FM ning axolini ogoxlantirish va ko'chirish bo'yicha o'tkaziladigan chora- tadbirlari.**

Axolini turli ko'rinishdagi FV lardan muxofazalash bo'yicha o'tkaziladigan barcha chora - tadbirlar orasida uning dastlabki bosqichi sifatida axolinining barcha qatlamlarini o'z vaqtida ogoxlantirish va qanchalik tezkorlik bilan amalga oshirilishiga erishilsa, u shu darajada ko'proq foyda beradi. Bu amaliyotni FVning maxalliy bo'linmalari va ular ixtiyorida bo'lgan barcha tashkilotlar tarkibidagi FM shtablarining mutasadi xodimlari tomonidan ma'lum belgilangan rejalarini asosida amalga oshiriladi.

Ogoxlantirish jarayoni radio, teleko'rsatuvlar va shtab tarkibiga biriktirilgan transport vositalarida ovoz kuchaytirgichlar yordamida yoki ishlab chiqarish korxonalarida beradigan signallar orqali amalga oshiriladi.

Sirenalar ovozi, korxonalaridagi signallar, transport vositalari yordamida quyidagi ogoxlantiruvchi ma'lumotlar beriladi: **«XAMMANING DIQQATIGA!!!** Bu ma'lumotni eshituvchilari diqqatiga aytilganda quyidagilar ta'kidlanadi: zudlik bilan radio va telekirsatuvlari orqali FM ning xabarlarini eshiting va ko'rsatmalariga rioya qiling!

Agar xalokat ximiyaviy xabarli korxonalarda kelgan bo'lsa, u xolda axoliga eshittiriladigan ma'lumot mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin: **Diqqat !!! FM ning ShTABI GAPIRAYAPTI! FUQAROLAR ! GISHT KOMBINATIDAGI FALOKAT TUFAYLI KZM – AMMIK ning TIKILISHI XISOBIGA zararlangan xavo oqimi axoli istiqomat qilayotgan manzilning sharqiy (janubiy yoki tarafta)tomoniga tarqalmoqda.** Shuning uchun shu yo'nalishdagi ko'cha va



maxallalarrda yashayotgan axolining ko'chalarga chiqmasligi, uy va xonalardagi barcha tirqishlarni qo'shimcha zichlovchi materiallar bilan yaxshilab berkitilish zarurligi uqtirib o'tiladi.

O'ta xavfli ko'chalarda yashayotgan axoliga darxol zudlik bilan qaerga qo'chish kerakligi va qo'shnilarga xam aytish zarurligini eshittiradi. Ko'chib borgandan so'ng FM shtabining ko'rsatmalariga rioya qilish kerakligi ta'kidlab o'tiladi.

Er silkinishining extimoli yuzaga keladigan bo'lsa, u xolda axoliga quyidagicha murojaat etiladi: «Diqqat !!! FM ning shtabi gapiradi! Er silkinishining yuzaga kelish extimoli tufayli quyidagi extiyot choralarni ko'ringlar: gaz, suv, elektr tokini, o'chog'dagi olovni o'chiring». Olingan ma'lumotni qo'shnilarga etkazing, o'zingiz bilan kerakli kiyimlar xujjatlar, oziq- ovqatlar, suv olib ko'chaga chiqinglar, qariyalar va kasallarga yordam ko'rsating, xamda imorat va elektruzatgich (sim)lardan uzoqda bo'lish kerakligi aytib o'tiladi.

Agar er silkinishning birinchi tebranishida uyda bilsngiz, u xolda darxol deraza yoki eshik oldida turishni intiling. Tartib saqlashga va vaxima qilmaslikka chaqiramiz. FM shtabning ma'lumotlariga e'tibor bilan axamiyat bering.

Agarda dushman tomonidan xujum xavfi keladigan bo'lsa, mashalliy xokimiyat va FVlarning joylardagi shtabi tomonidan chiqarilgan farmoyish, e'lon va axolining xatti-xarakatiga oid yo'l –yo'riq va qoidalarga to'liq amal qilinishi so'raladi. Shu vaqtdan boshlab radio va teleko'rsatuvlar doimo qo'yilgan bo'lishi kerak hamda barcha so'ngi yangiliklardan xabardor bo'lib turishligiga e'tibor qaratiladi.

Maboda dushman tomonidan xavo xujumi xavfi yuzaga kelsa «Xavo trevogasi!» degan signal beriladi. Bundan oldin: «Diqqat shamma uchun!» - degan signal beriladi, singra radio-telekirsatuvlar va e'lonlar eki murojat tarikasida u eki bu turdagi FVlar tugrisida ma'lumotlar beriladi. Maslan: Diqqat! Diqqat! Dikkat! FM ning shtabidan gapirayapmiz. Fuqorolar! Yavo trevogasi! Shu munosabat bilan svet, gaz, suv va olovlarni o'chiringlar! Shaxsiy muxofazalanish vositalari, shaxsiy xujjatlar, suv, oziq-ovqat zaxiralari va issiq kiyimlarni olinglar. Qo'shnilarni ogoxlantiring va qariyalar hamda kasallarga yordamlashing xamda barchaning to'planishi zarur bo'lgan manzil ko'rsatib o'tiladi.

Agar FVlar turi sifatida tabiiy ofatlar urniga ommaviy kirgin qurol(OKK)lari yoki kuchli zaxarlovchi moddalarning qullanilish xavfi yuzaga keladigan bo'lsa, u xolda axoliga quyidagicha murojat qilinadi: «Xammaning diqqatiga!» radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik vositalarning kullanilish xavfi borligi tufayli barcha Fuqarolar ma'lum tuplanish punktiga shu vaktga (soati aytiladi) yigilishlari suraladi xamda ularni xavfsiz joylarga kuchirish kerakligi tugrisida ma'lumotlar va kanday amallarni bajarilari lozimligi kursatib utiladi.

Axolini xavfsiz joylarga kuchirish, joylashtirish va ish bilan ta'minlash vazifalari FM shtabining shu soxa bo'yicha muovini tomonidan oldindan ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshiriladi. Axoli va ma'lum ob'ektlardagi ishchi –

xodimlarni xavfsiz joylarga ko'chirish jarayoni transport vositalari bilan ta'minlanganligi yoki ta'minlanmaganligiga asosan piyoda yoki avtoulavlarda amalga oshiriladi. Agar transport vositalari bilan ta'minlanish xolati etarli darajada bo'lmasa, u xolda ayollar va bolalar xamda qariyalar, kasallar xamda ularga tenglashtirilgan Fuqarolar avtoulavlar yordamida ko'chiriladi.

5. Uzbeksiton Respublikasining konuni. «Fuqaro muxofazasi tugrisida». Toshkent sh. 26 - may, 2000 yil.
6. Grajdanskaya oborona pod redaktsiey E.P.Shubina., «Prosveshenie», 1991 god.
7. N.D.Koz'min, X.I.Tuychiev «Axolini yalpi kirg'in quollaridan ximoya kilish vositalari va usullari. Izbekiston nashriyoti. Toshkent, 1977 yil.
8. I.I.Mamatov «Xarbiy toksikologiya va tibbiy muxofaza» Toshkent, 1997 yil.
9. O.Savchenko, X.Tuychiev «Zashita naseleniya ot orujiya massovogo porajeniya». Tashkent., «Izbekiston» 1985 god.
10. A.Kurbanniyazov «Fuqaro mudofasi» Toshkent., «Ukituvchi» 1997 yil.
11. Eto doljen znat' i umet' kajdiy. M., Voennoe izdatel'stvo, 1985 god.
12. Zanyatie po grajdanskoy oborone v pyatom klasse. M., «Prosveshenie"., 1975 god.

**13. Z.Ilyasova “Xayot xavfsizligi asoslari” ukuv kullanma. Fuqaro muxofazasi instituti., Toshkent – 2001 yil.**

**14. “Fuqaro muxofazasi” va “Fuqaro +” jurnallari.**

### **Фуқаро муҳофазаси фанидан услубий кулланма**

Муаллиф: Амонов Ю.У., Сариколов М.Х.  
Яратилган: Ангрэн 2005 йил  
Категория: Педагогика 2006 йил  
Булим: Фуқаро муҳофазаси фанидан амалий машгулотлар  
Институт: Тошкент вилоят Давлат педагогика институти  
Факультет: Жисмоний тарбия ва жисмоний маданият  
Кафедра: Тиббий билим асослари ва фуқаро муҳофазаси

Uslubiy qo'llanma TVDPI ning “Tibbiy bilim asoslari va fuqaro muhofazasi” kafedrasining o'qituvchilari Y.U.Amonov va M.X.Sarikulovlar ishtirokida tayyorlangan va kafedraning 2005 - yil 26 may oyidagi 12 - sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

Mavzu: Favqulodda vaziyat sharoitini baholashda radiatsion, ximiyaviy va bakteriologik nazorat usullari

Vaqt: 4 soat

**Mashg'ulot o'tkaziladigan joy: Fuqaro muhofazasi xonasi**



Ko'rgazmali qurollar: Amaliy darsga oid plakatlar, rasmlar, diafilm va dozimetrik asboblari: DP-5A, DP-22V, DP-24. VPXR va PPXR.

## **AMALIY MASHG'ULOT**

Favqulodda vaziyat sharoitini baholashda radiatsion, ximiyaviy va bakteriologik nazorat usullari

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga radiatsion, ximiyaviy va bakteriologik nazorat asboblarning tuzilishi va ulardan foydalanish jarayonini o'rgatishdan iborat.

### **MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHALAR**

- 1. Radiatsion, ximiyaviy va bakteriologik asboblarning turlari**
- 2. RM-larning mavjudligini aniqlash usullari**
- 3. ZM- larning mavjudligini aniqlash usullari**
- 4. BV- larning mavjudligini aniqlash usullari**

### **MASHG'ULOT BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR.**

1. DP-5A dozimetrik asbobining tuzilishi va ishlash jarayonini ko'rsating
2. DP-24 va DP-22V asboblarining tuzilishi va ishlash jarayonini ko'rsating
3. VPXR va PPXR asboblarining tuzilishi va ishlash jarayonini ko'rsating
4. Bakteriologik aerozollarning mavjudligini aniqlash va ketma-ketligi qanday amalga oshiriladi?
5. DKP-50A asbobi yordamida qaysi turdagi zararlanish va qanday aniqlanadi?

## **FAVQULODDA VAZIYAT SHAROITINI BAHOLASHDA. RADIATSION, XIMIYAVIY VA BAKTERIOLOGIK NAZORAT USULLARI.**

1. **Radiatsiya meyorini aniqlashda dozimetrik asboblardan foydalaniladi. Bu asboblarga qo'yidagilar kiradi: DP-2, DP-3, DP-5A, DP-5B, DP-12, DP-22V, DP-23A, DP-24, DP-63A, DP-64.**

Zararlangan joyda radiatsiya meyorini va turli obyektlarining radioaktiv zararlanish darajasini aniqlash.

Odamlarind terisidagi, kiyimlaridagi, oziq-ovqatlar tarkibidagi, suv va turli boshqa buyumlardagi radiatsiya meyorini hamda radiatsiya bilan zararlanish darajasi xamda gamma nurlanish bo'yicha zararlanish darajalarini aniqlashda sanoatda ishlab chiqilgan DP-5A rengen-radiometrik asbobidan foydalanishadi.

DP-5A priborni ishga tayyorlash:

- zondni g'ilofdan chiqarish,
- telefonni asbobga ulash
- diapozonni o'zgartirish dastasini "ochirilgan" vaziyatga burash, so'ngra dastasini soat strelkasiga teskari tomonga oxirgacha burash,
- korrektor qopqog'ini chiqarib olib, strelkasini nol holatiga keltirib, qopqog'ini joyiga burab quyish,
- diapazon dastasini "Rejim" vaziyatiga burab, priborni ishga tushirish,
- Regim dastasini soat strelkasi bo'yicha burab, mikroampermetr strelkasini uchi pastga qaragan uchburchak belgiga keltirish kerak. Agar strelka ungacha bormasa priborni ulash va energiya manbaining ishga yaroqligini tekshirib ko'rish kerak,
- g'ilof qopqog'iga o'rnatilgan radioaktiv manba yordamida-priborning hamma diapazonlarida: birinchi "200" va boshqa vaziyatlariga burab ish faoliyatini tekshirib ko'rish,
- zond ekranini "B" vaziyatiga burab, zondni shunday o'rnatish kerakki, radioaktiv manba zond oynasiga qarama-qarshi bo'lsin,
- telefonni ulash

- diapazon dastasini asta-sekin burab, 200, x1000, x100,...x0,1 vaziyatiga o'tkazib, pribor ko'rsatgichlarini kuzatish bilan birga telefonda qitirlagan ovozni eshitish mumkin,
  - radioaktiv manbai aktivligi yetarli bo'lmagan taqdirda ampermetr strelkasi diapazon dastasi x10, x1 vaziyatlarida bo'lganda joyidan suriladi, diapozonning x1000 va x100 bo'lgan vaziyatlarida strelka joyidan siljmaydi,
  - diapozon dastasini "Rejim" holatiga qo'yish.
- Pribor ishga tayyor.

## **RADIATSIYA BILAN ZARARLANGAN MAYDONDA RADIATSIYA ME'YORINI ANIQLASH.**

Radiatsiya me'yorini aniqlash uchun qo'yidagi amallar bajariladi:

- a) zond ekranini "G" holatiga o'rnatish hamda zondni g'ilofga joylashtirish,
- b) priborni yer sathidan 0,7-1 metr balandlikda qilibbo'yinga osib quyish kerak.
- c) diapozon ruchkasini "200" holatiga o'rnatib mikroampermetrning 0-200 r/s pastki shkalasidan ko'rsatgichni olish kerak. Bu diapozonda 5 r/s-dan katta bo'lgan radiatsiya me'yorini o'lchash mumkin.
- d) pribor 5 r/s-dan kam ko'rsatadigan bo'lsa, diapozon ruchkasini keyingi vaziyati ya'ni x1000-ga o'tkazib, mikroampermetrning yuqori shkalasidagi 0-5 r/s qiymatlar ko'rsatgichidan qiymat olinib, uni 1000-ga ko'paytiriladi va 5 r/s-gacha bo'lgan radiatsiya me'yorini aniqlanadi.

### **Turli obyektlarning radiatsiya bilan zararlanish darajasini aniqlash.**

Jarayoni qo'yidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- a) zond ekranini "G" holatiga o'rnatish.
- b) diapozon ruchkasini x1000-ga qo'yib, zondni tekshiriluvchi obyektga 1-3 sm. masofaga yaqinlashtirish kerak,
- c) mikroampermetrning yuqorigi shkalasi 0-5 r/s ko'rsatgichidan ko'rsatgich olinib, olingan sonni 1000-ga ko'paytirib. gamma-fon miqdori aniqlanadi.
- d) pribor 5 r/s-dan kam ko'rsatadigan bo'lsa, diapozon ruchkasini keyingi holatga x100-ga o'tkazib, mikroampermetr strelkasi ko'rsatgan sonni 100-ga ko'paytirib, natijaviy radiatsiya me'yorini aniqlanadi.

### **Individual va guruhlar bo'yicha dozimetrik nazorat o'tkazish.**

Radiatsiya bilan zararlangan joyda aholining tashqi nurlanish dozasini, DP-22V hamda DP-24 asboblarning tarkibida qiruvchi DKP-50A individual dozimetr yordamida aniqlash mumkin. Bu pribor yordamida 2-50 P-gacha bo'lgan gamma nurlanishning individual dozasini aniqlab beradi.

Dozimetrni ishga tayyorlash ketma-ketligi qo'yidagicha:

- priborni himoya vositasini hamda zaryad berish moslamasidagi zaryad uyasining himoya qolpog'ini burab olish,
- potensiametr ruchkasini soat strelkasi yo'nalishiga qarshi oxirigacha burash (dastlabki vaziyatiga keltiriladi)
- dozimetrni zaryad berish uyasiga o'rnatish
- okulyarga qarab, dozimetrni bir barmoq bilan oz darajada qisib, ikkinchi qo'l bilan potensiametr ruchkasini soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha burab shkaladagi ko'rsatgich chiziqni "O" vaziyatiga keltiriladi, so'ngra dozimetrni uyadan olib, himoya vositasini va zaryad uyasini himoya qalpog'ini joyiga burab qo'yish kerak.

### **INDIVIDUAL DOZIMETRIK NAZORAT QO'YIDAGI TARTIBDA O'TKAZILADI:**

- a) radiatsiya bilan zararlangan joyda har bir kishi bittadan ishga tayyor dozimetrik oladi. Shu bilan birga dozimetrning nomeri nurlanish dozasi hisobiga olinadigan jurnalga yozib olinadi.
- b) gamma nurlanish rayonida ishlash vaqtida dozimetr chuntagida olib yuriladi, har zamonda dozimetrning okulariga qarab, shkaladagi ip ko'rsatgan daraja bo'yicha ish mobaynida olingan nurlanish dozasining kattaligini bilish mumkin.
- c) ish tugagach dozimetrni postga topshiriladi, ish vaqtida olingan nurlanish dozasini hisobga olish jurnaliga hamda meditsina daftarchasiga yozib qo'yiladi.

### **GURUHLAR BO'YICHA DOZIMETRIK NAZORAT O'TKAZISH UCHUN:**

- a) **ishga tayyor bo'lgan individual dozimetr DKP-50A faqat bir kishiga-guruh sardoriga beriladi. Guruh sardori olgan nurlanish dozasini, radiatsiya bilan zararlangan joyda ishlagan guruh a'zolarining hammasiga yozib qo'yiladi.**

**Harbiy himoya razvedka pribori VPXR yordamida zaharli modda borligini aniqlash.**

- **priborni qopqog'ini ochib, nasos futlyardan chiqarib olinadi.**
- **Zarin, zamon va V-gazlarini aniqlash uchun belgilangan qizil xaltani va qizil nuqtali 2-ta indikator trubkasini olib, uchlarini kesish kerak.**
- **ampula yorgich yordamida trubkaning yuqori ampulalarini yorib markirovkalanmagan uchidan ushlab, 2-3 marta qattiq silkish kerak.**
- **Trubkani birini /tajribalisini/ markirovkalanmagan uchini nasosga o'rnatib, u orqali 5-6 marta havo haydaladi. Ikkinchi trubka /kontroldagi/-ga havo haydalmaydi.**

- nasos tutgichida qizil chiziq bilan belgilangan ampula yorgich yordamida pastki ampulani yorib, 1 minut davomida to'lgazgich ichidagi rang o'zgarishini kuzatamiz.
- sinil kislotasi, xlorion, fosgen va difosgen moddalarning birligini aniqlash uchun 3-ta yashil xalqali ko'rinishdagi 1-ta indikator trubka olinib, uning ikkala uchini keskich yordamida kesib olish kerak.
- ampula yorgich yordamida indikator trubkasining ichidagi ampulani yorib markirovka qilingan tomonidan ushlab, 2-3 marta qattiq silkish kerak.
- trubkaning markirovkalanmagan uchini nasosga o'rnatib, 10-15 marotaba havo haydaladi. So'ng indikator trubkasini nasosdan olib, 1 minut davomida havo haydalgan idish ichidagi rang o'zgarishi kuzatiladi.

Havodagi ipritni aniqlash uchun:

- bitta sariq halqali indikator trubkasini olib, ikki uchini kesib markirovka qilinmagan uchini nasosga o'rnatib, 60 marta havo haydaladi.
- trubkani nasosdan olib, 1 minut vaqt o'tgach ampuladagi havoning rangi bilan taqqoslanadi.

Havo harorati past bo'lganda indikator trubkasini isitgich yordamida isitish kerak bo'ladi.

Yer sathidagi kiyimlardagi va boshqa buyumlardagi zaharli moddalarni aniqlash uchun, nasosga maxsus voronkalik moslamani burib o'rnatiladi. Nasosni tekshiriladigan ob'yektga shunday yaqinlashtirish kerakki, uning moslamasidagi voronka eng ko'p zaharlangan joyni egallasin. Nasos yordamida 60 marta havo haydaladi.

Radioaktiv zaharli va bakteriologik moddalar bilan zararlangan oziq-ovqat mahsulotlaridan va suvdan namuna olinib, ularni laboratoriyaga jo'natish uchun yo'llanma tuzish.

Suvning radiatsiya, zaharli moddalar va bakteriologik moddalar bilan zararlanganda namuna olish tartibi qo'yidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- suv havzasini va unga yaqin bo'lgan joylarni tekshirib, radiatsiya, zaharli modda va bakteriologik modda bilan zararlangani haqida belgilarni aniqlash maqsadida suv havzasi yaqinida radiatsiya me'yori bilan VPXR yordamida havoda zaharli modda borligini aniqlash kerak bo'ladi.
- suvdan namuna 0,5-1 litr miqdorda toza idishga olinadi. Quduqdan olingan suv avvaliga chelakka aralashtiriladi, tibbiy suv havzasidan ikkita namuna yuzasidan va chuquridan batometr yordamida yoki ipcha osilgan yukli butilka yordamida olinadi.
- vodoprovod suvini 10 minut oqizib keyin namuna olinadi, olingan namunalar nomerlanib, ularga yo'llanma qogozlar to'lg'azilib laboratoriyaga yuboriladi.

Bakteriologik vositalarning qo'llanishida yuzaga keladigan zararlanish darajasini aniqlash jarayoni qo'yidagi usulda amalga oshiriladi:

- oziq-ovqat ob'yektini tekshirishdan o'tkazish,
- ochiq yotgan oziq-ovqat mahsulotlarning yuzasidan olinadi, idishlarda yopiq joylashgan oziq-ovqatlar partiyasini 10-joydan ochib, har bir joyidan 50-100 gramm miqdorda namuna olinadi, qattiq mahsulotlardan 1 sm. chuqurlikdan (non, go'sht), sochiladigan mahsulotlardan 3 sm. chuqurlikdan (un, guruch), govanli mahsulotlardan 10 sm. chuqurlikdan (makaron, suxari), yarim suyuq mahsulotlardan 5 sm. chuqurlikdan (murabbo), ichimliklar yuzasidan va shisha nay yordamida idish tubidan namuna olinadi. Bu namunalar ham nomerlanib, og'zi muhrlanadi, har biriga alohida yo'llanma yozib laboratoriyaga yuboriladi.

Jo'natilgan yo'llanmada qo'yidagi ma'lumotlar aks ettirilgan bo'lishi shart: Qachon (sana, sutkaning qaysi vaqti), kim tomondan va qaerdan namuna olinganligi hamda jo/natish manzili to'g'risida to'liq ma'lumot yuboriladi.

#### **X U L O S A:**

Shunday qilib, talabalar tomonidan mashg'ulot yakunida qo'yidagi bilim va ko'nikmalarni o'zlarida mujassamlashtirilgan bo'lishlari kerak:

1. Radioaktiv, ximiyaviy va bakteriologik zararlanish darajalarini aniqlashda qo'llaniladigan asboblarning turlari hamda tuzilishlariga oid bilim va tasavvurga ega bo'lishadi.
2. Radioaktiv va ximiyaviy zararlanish darajalarini asboblarda yordamida aniqlash bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ma'lum erishadilar.
3. Zararlanish darajasining aniqlanish darajalariga asosan to'g'ri hatti-harakatlarni hosil qilish bo'yicha kerakli qarorlarni chiqarish yoki tavsiya eta oladigan bo'ladilar.

#### **A D A B I Y O T L A R:**

1. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. O'quv qo'llanma. Fuqaro muhofazasi instituti – 2001 yil.
2. Гражданская оборона под редакцией Е.П. Шубина М., Просвещение, 1991- год.
3. N.D. Kozmin, X.I. To'yuchiyev "Aholini yalpi qirg'in qurullaridan himoya qilish vositalari va usullari". O'zbekiston nashriyoti. Toshkent., 1977 yil.
4. I.I. Mamatov. "Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza" Toshkent, 1997 yil.

Mavzu: “Favqulodda vaziyatda o’qituvchilar va o’quvchilar tarkibining xatti-harakati”

*Vaqt: 4 soat*

Mashg’ulot o’tkaziladigan joy: Fuqaro muhofazasi xonasi

Ko’rgazmali qurollar: Darsga oid plakatlar, rasmlar, diafilm.

## **AMALIY MASHG’ULOT**

*Mashg’ulotning maqsadi: Favqulodda vaziyatda o’qituvchilar, o’quvchilarni muhofazalash va dalil qat’iyatlik bilan ish tutishga, shuningdek muhofazalanish vositalaridan unumli foydalanishga o’rgatish.*

## **MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHALAR**

1. FB-lardagi o'quvchilar va o'qituvchilar tarkibining hatti-harakati
2. Maktab jamoasining FB sharoitini baholash tartibi
3. Ximiyaviy va bakteriologik zararlanishlar
4. Kuchli ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar ta'siridagi o'quvchilar va o'qituvchilar tarkibining hatti-harakati

## **MASHG'ULOT BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR**

1. Radiaktiv zararlanishlar kuzatilganda o'qituvchining roli va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ximiyaviy moddalardan zaharlanish deganda nimani tushunasiz?
3. Ximiyaviy zaharlanish kuzatilganda o'qituvchining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Bakteriologik zaharlovchi moddalardan qaysilarini bilasiz?
5. Bakteriologik zaharlovchi moddalar havoga tarqalganligi haqidagi xabarni eshitsangiz nima qilgan bo'lardingiz?
6. O'quvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish borasida qanday muolajalarni bajara olasiz?

## **FAVQULODDA VAZIYATDA O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR TARKIBINING HATTI - HARAKATI**

Umumta'lim maktab muassasalarining rahbarlari va shtab boshliqlari oldiga favqulodda favqulodda vaziyatlar vaqtida fuqaro muhofazasi uchun zarur bo'lgan kuch va mablag'lardan tashqari juda ko'p vazifalar qo'yiladi. Bularga qo'yidagilarni kiritish mumkin: Favqulodda vaziyatlar vaqtida fuqaro muhofarzasini haqida barcha o'qituvchilarga ma'lumot berish, o'z vaqtida tibbiy va yakka maxsus muhofazalanish vositalari bilan ta'minlash, o'quvchilar va jabrlanganlarga tez



tibbiy yordam berishning tashkil qilinishi, qidiruv-qutqaruv ishlarining olib borilishi, yong'inning uchirilishi, qidiruv va jabrlanganlarni ko'chkinlar tagidan olib chiqish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, qisman bo'lsada o'quvchilar zaharlanishining oldini olish. Tozalash ishlarini olib borish, radioaktiv moddalar, zaharli moddalar va bakterial vositalarining miqdorini aniqlash, buning uchun dozimetrik va ximiyaviy nazorat asboblardan unumli foydalanish zarur. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi komandir rolini bajaradi. O'quvchilardan guruhlar tuziladi, vazifalar ma'lum bo'lishi bilan o'qituvchi barcha guruhlariga o'z vaqtida vazifalarni bo'lib beradi, vaqtni belgilaydi, katta guruhlariga qo'shimcha vazifalar ham beradi, shundan so'ng vaziyatni aniqlab biror qarorga kelinadi.

Vazifani bayon qilib, u qo'yidagi vazifalarni tushuntirishi kerak: Oldinda turgan va amalga oshiriladigan hatti-harakatlarning maqsadi, fuqaro muhofazasi boshlig'i, ya'ni direktorning fikri, uning vazifasi, vazifaning bajarilishida o'quvchilarning roli, qo'shnilarining vazifasi va ular bilan birgalikdagi amalga oshiriladigan hatti-harakatlar hamda vazifalarning bajarilishi uchun sarflanadigan tayyorgarlik vaqti to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Vazifani bayon qila turib, tezlik bilan bajarilishi kerak bo'lgan tadbir o'tkazishi shart. Shuningdek yuqori sinf o'quvchilariga qo'shimcha vazifalar belgulashtirish lozim.

Favqulodda vaziyat sharoitini baholashda shtab boshlig'i tomonidan birinchi navbatda o'quv yurti joylashgan xudud va uning atrofidagi radision, ximiyaviy va bakteriologik vaziyatlarning qanchalik xavfsiz ekanligiga e'tiborni qaratishi zarur, xavfsiz joylarga ko'chirish jarayonida yong'inlardan extiyotlik choralarini kurish, ob – havoning holatiga, yil fasliga va ularning oldiga quyilayotgan vazifalarining bajarilish jarayoniga ham e'tibor berilishi lozim. Vazifa bayon qilingandan sung qarorning bajarilishi natijasi va favqulodda vaziyat sharoitini baholagandan so'ng o'qituvchi tomonidan olib boriladigan qidiruv – qutqaruv ishlarining kengligi, birinchi tibbiy yordam, ko'proq e'tibor berilishi shart bo'lgan joylar, ishning borishi, kuch va mablag'ning taqsimlanishi ko'chirish tartibini aniqlaydi. Vazifalar qo'yilishida katta guruhlarining o'quvchilariga qidiruv – qutqaruv ishlarini olib boriladigan joylarni belgilash va jabr ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ularni zarar ko'rilgan joylardan olib chiqilish tartib qoidalari va transportlarga yuklanishi, vazifalarning bajarilish vaqti, aloqaning ta'minlanishi, vazifa bajarilgandan so'ng yig'ilish joyi hamda vaqti tug'risida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ko'rsatmalar beriladi.

Vazifalar bo'lingandan so'ng o'qituvchi uning bajarilishini kuzatib boradi va ehtiyot choralarini ko'rib, kerakli yordam ko'rsatadi. Shundan so'ng katta guruh ishlarining bajarilishi haqida ma'ruzani va nurlangan joylar haqida ma'lumotlar eshittiriladi. Katta guruh ishlarini umumlashtirib, fuqaro muhofazasi boshlig'iga ya'ni direktorga ma'lumot beradi va uning ko'rsatmasiga binoan harakat qiladi.

Maktablarda qidiruv – qutqaruv ishlarini asosan o'qituvchilarning aniq va mukammal ishlangan rejasi asosida tashkil qilinadi. Maktabdagi fuqaro muhofazasi

shtabning komandiri shaxsiy tarkibni zararlangan hudud aniqlangandan sung xavfsiz deb belgilangan hududlarga vaqtdan unumli foydalangan holda olib chiqadi. Maktabdagi qidiruv – qutqaruv ishlarining yaxshi olib borilishi shundan iboratki, u signal olingan zaxotiy oq boshlanishi shart va to'liq nihoyasiga etkazilishi kerak. Maktablarda qutqaruv ishlarini olib borish asosan ikki etapga bo'linadi:

Birinchi etap – favqulodda vaziyatlar ro'y bergan joydan olingan signaldan, toki o'pga joyga etib kelinishi,

Ikkinchi etap – etib kelishdan tortib, o'quvchilarning zararsizlantirilgan joylarga etkazilishi, ularga birinchi tibbiy yordam kursatish ahvoli og'ir deb hisoblanganlarni maxsus transport vositalari yordamida shifoxonalarga junatilishi zarur.

Hamma narsa o'qituvchining harakati va aqliga bog'liq buladi.

Birinchi etapdagi qidiruv – qutqaruv ishlarini maktab direktori tomonidan tashkil qilinadi, boshqa vazifalarni esa o'qituvchilar bajaradi. Pedagoglar jamoasi jipslangan tarzda o'z kuchlari bilan birgalikda bajaradi. Yong'in va zarar haqida direktor rayon markazidagi fuqaro muhofazasi shtabining boshlig'iga xabar beradi va yordam so'raydi. Maktab yonishining sababi esa elektr tarmoqlaridagi nosozlik, gaz ilitalarining to'g'ri ishlatilmaganli bo'lishi mumkin.

Qutqaruv ishlarida qatnashmagan o'qituvchilar tsa asosan o'quvchilarni qo'rqmaslikka undash, yong'in tufayli vaximaga tushmaslik va qaltis harakatlarni hosil qilmasliklariga e'tiborni qaratishlari zarur buladi. Ba'zi ruxan kuchli bulgan o'quvchilarga qurquvga berilgan o'rtoqlariga yordam berish vazifalarni yuklaydi. Agar iloji bo'lib qolsa, qutqaruv guruhi kelgunga qadar o'quvchilarni zararlangan joydan olib chiqishga harakat qiladi. Radiaktiv zararlanish haqida ma'lumot olingan bo'lsa o'qituvchi protivogazlarni kiyishga yordam beradi va muxofazalanishishlarini yukga quyadi. Agarda muxofazalanishzonasi bo'lmasa, sinfda qolishga va o'qituvchi yordamida xonaga radiaktiv zararlangan havoning kiritmaslik oldini oladi. Buning uchun deraza oyinalarini yopadi, ventilyasiya lyuklarini zichlab yopishadi, eshiklarni yopishadi va hokazolar.

Maktabning tibbiy xodimlari esa radiaktiv zararlanishni oldini olish uchun o'quvchilarga kaliy yodli, qalayli va yodli suyuqliklar berishadi. Havoda kuchli ta'sir qiluvchi zaxarli moddalar haqida xabar olib kelinsa, albatta o'quvchilarning nafas olish yullarini o'zlari muhofazalash uchun kerakli narsalar bilan ta'minlash zarur. Bularga turli protivogazlar va yoping'iclardir va ularga shu joyning o'zida birinchi tibbiy yordam ko'rsatadilar. Agar yaqin atrofda muhofazalanish zonalari bo'lmasa, u holda o'quvchilar bilan sinfdan tashqariga chiqmaslik kerak. Maktab direktori esa o'quvchilarni ko'chirish uchun transport chaqiradi. Zararlangan joydan chiiqib, o'quvchilar tibbiy ko'rikdan o'tadilar, kuchli ta'sir qiluvchizaxarli moddalardan zaxarlanishning oldini olish uchun eng avvalo nafas yullarini muhofaza qilish sharndir. Jabrlanuvchiga protivogaz kiydirish yoki bo'lmasa, paxta dokali bog'lamalardan foydalanish zarur. Bu bog'lamalar ikki foizli xlori

suvga, yoki iste'mol sodasiga xo'llangan bo'lishi kerak. Shundan so'ng jabrlanganlarni davolash muassasasiga olib borish sharndir.

Ikkinchi shtabda esa o'qituvchilar qutqaruvchilarga kimlarga birinchi yordam ko'rsatilishi haqida xabar beradilar. Bolalar ko'p turgan joylarni ko'rsatadilar. Zarar ko'rganlarni olib chiqadilar, shuningdek ko'chirishga yordam qiladilar.

O'qituvchi hech narsadan qurqmasdan, hech narsaga e'tibor bermasdan o'quvchilarga yordam berishi kerak. Maktabdan qutqaruv ishlari tugallangan deb hisoblanadi, qachonki zarar ko'rgan joydan binna ham qoldirmay o'quvshilar olib chiqilsa va tibbiyot muassasalariga junatilgandan so'ngina tugallangan hisoblanadi.

Qutqaruv paytida o'qituvchi o'zining va bolalarining ehtiyotkorligini ta'minlashi kerak. Zarar ko'rgan bolalarni esa, albatta birinchi navbatda yaqin atrofdagi tibbiyot muassasalariga yoki punktlariga ko'chirilishi zarur. Qolgan o'quvchilarning ko'chirilishida shahar yoki rayon fuqaro muhofazasi boshlig'ining ko'rsatmasiga binoan bajariladi. Agarda favqulodda vaziyat katta masshtabda, ya'ni shahar yoki rayon miqyosida sodir etilgan bo'lsa ularni albatta qo'shni viloyatlar, yoki shaharlar hududiga ko'chirish lozim. Bunda esa ko'chirish haqidagi buyruqni Davlat favqulodda vaziyatlar komissiyasi tuzadi va vazifalarni belgilab boradi.

Bakteriologik zararlangan joydan jabrlanuvchilar va jabrlanmaganlar, ya'ni o'quvchilar karantin zonasidan chekkaroq joyga ko'chiriladilar, karantik tugagandan so'ng esa sal uzoqroq viloyat yoki respublikalarga ko'chiriladi.

O'quvchilar hayotning saqlanish choralari esa o'pka joydagi hokimiyat, tashkilot rahbarlari maktab rahbarlari bilan birgalirda hal qiladilar. Maktab rahbarlari ko'chirilgan bolalarning ota – onalari bilan aloqa bog'laydilar. Shuningdek tibbiyot muassasalaridagi bolalarning xolidan ham xabar olib turadilar.

Xulosa:

Demak umumta'lim maktab jamoasi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda quyidagi xatti harakatlarni o'zlariga mujasamlashtira oladigan bo'lishlari shart:

- 1.Sodir etilgan favqulotdda vaziyatning turi va unga to'g'ri baho bera olish.
- 2.Favqulodda vaziyatda vahimaga berilmasdan tezkorlik bilan qilinadigan ishlar rejasi tuzib chiqish
- 3.Zudlik bilan umumta'lim maktab jamoasining faollariga topshiriq va vazifalarni bajarish tartibini etkazish.
- 4.Darhol umumta'lim maktab jamoasini xavfsiz joyga ko'chirish chora – tadbirlarini ko'rish va daddillik bilan ruyobga chiqarish.
- 5.Jarohatlanganlarni aniqlash va ularga yordam ko'rsatishni tashkil etish.
- 6.Vayronalar yuzaga kelgan bo'lsa, keiktirib bo'lmasdan qidiruv – qutqaruv ishlarini amalga oshirish.
- 7.Turli darajalarda zararlanganlarni aniqlash va davolash maskanlariga jo'natish.

## ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov “O‘zbekisto XXI – asr bo‘lag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ”. Toshkent “O‘zbekiston”. 1997 yil.
2. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. O‘quv qo‘llanma. Fuqaro muhofazasi instituti – 2001 yil.
3. N.D. Kozmin, X.I. To‘ychiyev “Aholini yalpi qirg‘in qurullaridan himoya qilish vositalari va usullari”. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent., 1977 yil.
4. Z. Ilyasova “Hayot havfsizligi asoslari”. O‘quv qo‘llanma. Fuqaro muhofazasi instituti, Toshkent – 2001 yil.

Mavzu: Talabalarga umumta‘lim maktab o‘quvchilarini sanitar ko‘rikdan o‘tkazish metodikasini o‘rgatish.

Vaqt: 2 soat.

Mashg‘ulot o‘kaziladigan joy: Fuqaro muhofazasi xonasi.

Ko‘rgazmali qurollar: Mavzuga aloqador plakatlar, diafilm va IPP-8

## *AMALIY MASHG‘ULOT*

*Mashg‘ulot maqsadi: Talabalarga sanitar ko‘rikdan o‘tkazish qoidalari, ularning maqsadi, tartibi dezantivatsiyalash, detazatsiyalash va talabalarning asosiy vazifalariga oid bilim va malakalar berishdan iborat.*

## MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Shaxsiy himoya paketi – IPP-8
2. Shaxsiy degazatsiyalovchi paket
3. Paxta – dokali tampon
4. To'liq va qisman sanitar ko'rikdan o'tkazish.

### AMALIY MASHG'ULOT YUZASIDAN

#### NAZORAT SAVOLLAR:

1. IPP-8 paketining tuzilishini aytib bering?
2. IPP-8 paketidan foydalanish tartibini aytib bering?
3. Odamlarni qisman sanitar ko'rikdan o'tkazish tartibini aytib bering?
4. Odamlarning to'liq sanitar ko'rikdan o'tkazish tartibini aytib bering?
5. Paxta dokali tamponni o'zingiz tayyorlab ko'rsating va uni talabalardan birida kiydirib tekshirib ko'ring?

#### QISMAN SANITAR KO'RIK DAN O'TKAZISH.

**Dushman tomonidan ZM-lar ishlatilganda qisman sanitar jihatdan ishlov berish kechiktirilmasdan shu zohoti zararlangan joyning o'zida o'tkazilishi kerak.**

Ximiyaviy zaharli moddalarga qarshi shaxsiy ximoya paketi IPP-8 dan foydalanish zarur. Buning uchun zudlik bilan polietilen xaltani va flakonning qopqog'i burab ochiladi. So'ngra paxta-dokali tamponni degazatsiyalovchi suyuqlik bilan ho'llanadi. Ho'llangan tampon bilan badanning ochiq joylari ikki, uch marta artiladi. Artilgan joyga yaqin turgan kiyim ho'llab tozalanadi.

Badanning ochiq joyidagi teriga ikki marotaba ishlov beriladi: birinchisi ZM-lar ishlatilgandan keyin o'sha xavfli joyning o'zida bo'lsa, ikkinchisi esa zararlangan joydan chiqqandan keyin va muhofazalovchi kiyimlar yechilgandan so'ng, IPP-8 ishidagi suyuqlik ko'zning shilliq pardalariga va og'iz bo'shlig'iga tushmasligi kerak. IPP-8 bo'magan taqdirda shaxsiy degazatsiyalovchi paketdan foydalanish zarur.

Paxta-dokali tampon 2%-li sodali eritma bilan namlanib, badanning ochiq joylaridagi teri artiladi (tamponning ikkinchisi №1 eritma bilan yana bir karra o'sha joylar artiladi). Degazirlovchi selikogelli paket (paketni ochib teridagi va kiyimdagi ZM-tomchilari ustiga selikogelli poroshok sepiladi) hamda sovun sodali eritma bilan badanning ochiq joyidagi teri artiladi, kiyim esa namlanadi.

ZM bilan ruxsat etilgan darajadan yuqori zararlanish ro'y berganda, aholini qisman sanitar ko'rikdan o'tkazish uchun, ular zararlangan joydan chiqqan zahoti qo'yidagi amallar bajarilishi shart:

- zararlanish uqog'idan chiqqandan so'ng, ZM-ni ketkazish maqsadida muhofaza va ustki kiyimlar yechiladi hamda yaxshilab silkib qoqiladi, supurgi va tozalagich bilan supurib tozalanadi,
- poyafzal supurgi bilan yoki toza ko'kat bilan supurib tashlanadi, so'ngra toza suv bilan yaxshilab yuviladi,
- protivogaz sumkasini ochib silkib qoqiladi, protivogaz qutisi bilan yuz qismi toza suv bilan yuviladi,
- badanning ochiq joylariga ishlov berishda toza suv bilan qo'l, yuz, bo'yin yaxshilab sovunlab yuviladi, tirnoq tagi kirdan tozalanadi, og'iz va burun bo'shliqlari toza suv bilan yaxshilab chayiladi,
- suv bo'lmaganda badanning ochiq joylariga toza qor bilan ishlov beriladi yoki quruq tampon bilan (uni tez-tez alishtirib) yuqoridan pastga qarab bir yo'nalishda artiladi.

Dushman tomondan BV (bakteriologik vosita) ishlatilganda qisman sanitar ko'rikdan o'tkazishda bakterial aerezolli bulut o'tib ketgan zahoti (BV qo'llanilgan vaqti aniqlangach) IPP-8, dezinfeksiyalovchi eritma (2%-li monoxloramin eritmasi) bilan juda bo'lmaganda toza suvdan foydalanishadi. BV bilan zararlanganda qisman sanitar ko'rikdan o'tkazish usuli PM va ZM-lar bilan zararlangandagiga usulga o'xshash bo'ladi.

Aholini sanitar ko'rikdan o'tkazish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- suv manbasiga yaqin bo'lgan joydan maydoncha tanlash va uchta bo'limdan iborat bo'lgan palatkalar o'rnatish: yechinish, kiyinish va yuvinish bo'limlari.
- dala sharoitida suvni isitish uchun avtomobil - dush uskunasiidan foydalanish,
- tashqi va ichki poyafzallarni almashtirish fondini tashkil qilish,
- sanitar ko'rikdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash,
- kiyim va poyafzallar uchun qoplar, DP - 5A asbobi, suv o'tkazmaydigan bog'lamlar yoki nakleykalar, birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish uchun zarur hisoblanuvchi dori - darmonlar, 1...3% - li monoxloramin eritmasi, 2% -soda eritmasi, sovun va boshqa vositalar bo'lishi talab etiladi.

**To'liq sanitar ko'rikdan o'tkazish jarayoni quyidagi ketma - ketlikda olib boriladi:**

- RM bilan zaharlangan fuqarolar, kiyim almashtirish bo'limiga kirishdan oldin, protivogazdan tashqari barcha shaxsiy muhofazalanish vositalarini yechib, maxsus ajratilgan joyga taxlab qo'yiladi, bosh va ustki kiyimlar raqamlangan shaxsiy qoplarga joylashtiriladi. So'ngra, ularning kiyim va poyafzallari dezaktivizatsiyalanadi,
- Kiyim almashtirish bo'limida ishlash uchun saninstruktor, DP - 5A asbobi bilan dozimetrchi, 2 - 3 ta sanitar ajratiladi. Dozimetrchi barcha kiyimlarning ZMlar bilan qanchalik zararlanganlik darajasini aniqlaydi. ZMlar bilan zararlangan kiyim va poyafzallar qoplarga joylashtirilib, dezaktivizatsiya bo'limiga jo'natiladi. Dezaktivizatsiya qilishda yaramaydigan kiyimlar almashtirish fondi hisobiga yangilari bilan almashtiriladi.
- qimmatbaho buyumlar, hujjatlar raqamlangan qoplarga joylashtiriladi va egalariga jeton ko'rsatilgan taqdirda qaytarib beriladi.
- sanitar o'rgatuvchi va sanitarlar yordamida jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi. Sanitar ko'rikdan o'tadigan shaxs yuvinish bo'limiga kirish oldidan qo'lini, bo'ynini, protivogazning yuz qismini monoxloraminning 1-2% eritmasi bilan yaxshilab artiladi, so'ngra sanitardan sovun hamda yuvinish uchun zarur bo'lgan boshqa vositalarni olib yuvinish bo'limiga kiradi.
- ZM bilan zararlanganlar yuvinish bo'limida sovun va yuvgichlar yordamida issiq suv bilan yaxshilab yuvinadi. Dushda yuvinish tartibi qo'yidagicha: qo'llar sovun bilan yaxshilab yuviladi, tozalagich yordamida tirnoq tagidagi kirlar ketkiziladi, so'ngra bosh, yuz, bo'yin va butun tana yuqoridan pastga qarab, 2-3 marotaba yaxshilab sovunlab yuviladi, og'iz va burun bo'shliqlari suv bilan chayiladi, yuvinish jarayoni 15-20 minut davom etadi.
- kiyinish bo'limida ham ishlash uchun sanitar o'rgatuvchi va dozimetrchi ajratilgan bo'ladi. ZM-lar bilan zararlanganlar yuvinib chiqqandan so'ng kiyinish bo'limida ikkinchi marta dozimetrik kontroldan o'tkaziladi.
- Agar zararlanish darajasi ruxsat etilgandan yuqori bo'lsa, ular takroriy ravishda yuvinish bo'limiga qayta kiritiladi. Teri qavatining ZM bilan zararlanish darajasi ruxsat etilgandan yuqori bo'lsa, zararlangan shaxs tibbiyot nazoratiga olinish shart.

- ko'z zararlanganda 2%-li soda eritmasi bilan yuviladi, ho'l holatga kelgan bog'lamlar almashtiriladi, ichki, ustki kiyim va poyafzal beriladi. Kiyinib bo'lganlar tig'ilish punktiga yuboriladi.
- ZM va BV-lar bilan zararlanganlar ham xuddi shu usulda sanitar ko'rikdan o'tkaziladi.
- sanitar bo'limi xodimlari, protivogaz, rezina etik va qo'lqopda ishlashlari shart, bundan tashqari yechinish bo'limida muhofaza kiyimi va etak tutgan bo'lishi kerak. Ishdan so'ng sanitar xodimlari to'liq sanitar ko'rikdan o'tishlari zarur.

## SUV VA OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARINI DEGAZATSIYALASH.

Suvni degazatsiyalash jarayoni qo'yidagi ketma - ketlikda olib boriladi:

- 1) Suvni kamida bir soat davomida qaynatish zarur. Lyuizit bilan zararlangan suvni degazatsiyalashda bu usul ishlatilmaydi. Sababi bu usul qo'llanilganda suvning tarkibida mishyak chiqindisi hosil bo'ladi.
- 2) Suvni maxsus filtr yutgichlar yordamida filtrlash (universal ko'chma yuradigan filtr UKF-30, soatiga 3 litr suvni RM-dan tozalaydi, gazmol ko'mirli filtr TUF-200 yoki modernizatsiyalashtirilgan avtofiltrlash stansiyasi MAFO-7500) uskunalari va moslamalaridan foydalanib tozalashadi.
- 3) Xlorli oxakning tinitilgan eritmasi bilan yoki kalsiy gidroksidli hamda koyagulyant-temir kuporosini qo'shib degazatsiyalash.
- 4) Kombinatsiyalashgan usulni qo'llash, ya'ni filtrlash, so'ngra esa xlorldash usuli

Oziq-ovqat mahsulotlarini degazatsiyalash uchun qo'yidagi amallarning bajarilishi talab etiladi:

- 1) Oziq-ovqat mahsulotlarining ustki qatlamini olib tashlash (go'sht bo'lsa 2-3 sm. sochiladigan mahsulotlar uchun 5-7 sm.), shamollatish yoki qayta qizdirish, so'ngra ularda RM-lar yo'qligi aniqlansa, kulinariya ishlovidan (kamida 2 soat qaynatiladi) o'tkazilgach ishlatishga yaroqli deb hisoblanadi.



- 2) ZM bo'g'lari bilan zararlangan sabzavotlar, mevalar toza sovuq suv oqimida 2-3 marotaba yuviladi, so'ngra kulinariya ishlovidan o'tkaziladi. Tomchi suyuqlik shaklidagi ZM-lar bilan zararlangan sabzavotlar, mevalar, shuningdek zich bekitilmagan idishlardagi tayyor oziq-ovqat maxsulotlari degazatsiya qilinmaydi, ular butunlay yo'q qilinadi.
- 3) Konservalangan, ya'ni zichlab bekitilgan maxsulotlarning idishlar degazatsiyalovchi eritmador (1 va 2 nomerli eritma)-dan o'tkazilgandan keyingina ishlatishga yaroqli deb hisoblanadi.

#### “Suv va oziq-ovqat mahsulotlarini dezaktivatsiyalash usullari”

RMlar bilan zararlanish darajasi ruxsat etilgan kattalikdan yuqori bo'lgan suv, oziq-ovqat, tibbiy anjomlar, buyumlar dezaktivatsiyadan o'tkaziladi va radiometrik nazoratdan o'tkazib turilishi kerak. Suvni dezaktivatsiyalash maqsadida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Idishga suv quyilib, har bir litr hisobiga 30 ml. temir kuporosi qo'shib, koagulyatsiyadan o'tkaziladi. Suv tingandan keyin tiniq qismi boshqa idishga qo'yib olinadi, chuqindi qismini esa filtr yordamida tozalanadi.
2. Ionitlar yordamida tozalash (ionizatsiyalash)
3. Distilyator yordamida haydash yoki qo'lda yasalgan haydash moslamasi yordamida o'tkaziladi.
4. Yuqorida keltirilgan usullardan birgalikda foydalanish

Bu usullardan foydalanilganda suvni RM-lardan tozalash ko'rsatkichi 95-98%-ni tashkil etadi

Oziq-ovqat mahsulotlarini dezaktivatsiyalash jarayoni qo'yidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Zararlangan oziq-ovqat mahsulotlarining ustki qismidan 1 - 1,5 sm. qalinlikdagi qatlami olib tashlanadi.
2. Oziq-ovqat mahsulotining zichlab berkitilgan idishlari (konservalar) maxsus dezaktivatsiyalovchi eritmalarning biri bilan yuviladi. (SF poroshogining 0,2 - 0,3%li suvli eritmasi, OP - 7, OP - 10, va DL eritmalaridan foydalanishadi).

3. Zichlab bekitilmagan idishlarni yuvib, ichidagi oziq-ovqat mahsulotining zararlangan yuqorigi qismi olib tashlanadi.
4. RMLar bilan ruxsat etilgan kattalikdan yuqori darajada zararlangan suyuq holatdagi oziq-ovqat mahsulotlari brak, ya'ni yaroqsiz deb topiladi.

#### Tibbiy anjomlarni dezaktivatsiyalash uchun:

- 1) Jarroxlik asboblari, shifoxona va dorixonadagi metall asboblarni dezaktivatsiyalovchi eritmaga ho'llangan latta bilan yaxshilab yuviladi, toza suvda chayqab olinadi, hamda sterillanadi.
- 2) Tibbiy xalatlar, choyshablar, ichki kiyimlar yuvish vositasi bilan qo'shib kir yuvish mashinasida yaxshilab yuviladi.
- 3) Jarroxlik rezina anjomlari (qo'lqop, grelka, muzxalta) iliq yuvuvchi eritmalar bilan ko'p marta yuviladi. So'ng toza suvda chayqab olinadi va sterillanadi.

### X U L O S A

Demak talabalar tomonidan sanitar ko'rikdan o'tkazish jarayonini amalga oshirishda qo'yidagilarga e'tibor berishlari zarur ekan:

1. RM va ZMLar bilan zararlanganda aholini sanitar ko'rikdan o'tkazish jarayoni qisman va to'liq sanitar ko'rikdan o'tkazilar ekan.
2. Suv, oziq - ovqat mahsulotlari va tibbiy anjomlarni dezaktivatsiyalash zarurligi, hamda uni amalga oshirish metodikasini.
3. Suv va oziq ovqat mahsulotlarini degazatsiyalash metodikasini o'rgatish.

### A D A B I Y O T L A R

1. I.A. Karimov "O'zbekisto XXI – asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ". Toshkent "O'zbekiston". 1997 yil.
2. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. O'quv qo'llanma. Fuqaro muhofazasi instituti – 2001 yil.
3. N.D. Kozmin, X.I. To'ychiyev "Aholini yalpi qirg'in qurullaridan himoya qilish vositalari va usullari". O'zbekiston nashriyoti. Toshkent., 1977 yil.

4.Z. Ilyasova “Hayot havfsizligi asoslari”. O’quv qo’llanma.  
Fuqaro muhofazasi instituti, Toshkent – 2001 yil.